

UCHINCHI RENESSANS: G‘OYAVIY-MAFKURAVIY ISLOHOTLAR BOSQICHI.

Rahmatova Mohida Usmon qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
Milliy g‘oya, ma’naviyat
asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi
4-bosqich talabasi
e-mail: asdp95@umail.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston yoxud Uchinchi Renessans atamalari qiyosiy tahlil etilib yoritilgan. Xususan, ilmiy izlanishlar tahlili orqali ilmiy asoslangan. Shuningdek, Renessans davrlari atroflicha tahlil etilgan. O‘zbekistonda mafkuraviy sohada amalga oshirilayotgan islohatlar yoritilgan hamda xulosa berilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, Uchunchi Renessans, g‘oya va mafkura, amalga oshirilayotgan islohatlar, Yangi O‘zbekiston tajribasi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev matbuotga bergan intervyusida Uchinchi Renessans va Yangi O‘zbekiston tushunchalarini quyidagi fikrlar orqali bayon etgan, jumladan: “O‘tgan asrning boshlarida yurtparvar, millatparvar bobolarimiz - “jadidchilik”, ya’ni, yangilanish va erkinlik, adolat va tenglik, ilm-ma’rifat va milliy o‘zlikni anglash g‘oyalarini bayroq qilib, kurash maydoniga mardona chiqqanlarini barchamiz yaxshi bilamiz”¹,

“Bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi zamirida ana shunday ulug‘ ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi uyg‘onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam, desak, adashmagan bo‘lamiz”², dedi davlat rahbari.

¹ Saloxov A. Buxoro jadidlarining ta’lim-tarbiyaga oid g‘oyalarining nazariy-amaliy asoslari. Multidisciplinary Scientific Journal. October, 2023. 28-son. –B.56-57.

² <https://xabar.uz/uz/post/yangi-ozbekiston-va-uchinchi-renessans>

Uning soʻzlariga koʻra, Oʻzbekiston zamini qadimda ikki buyuk uygʻonish davriga - Birinchi (maʼrifiy - IX-XII asrlar) va Ikkinchi (Temuriylar - XIV-XV asrlar) Renessansga beshik boʻlgan. “Bu - jahon ilm-fanida oʻz isbotini topgan va tan olingan tarixiy haqiqatdir”], deya qoʻshimcha qildi prezident.

“Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uygʻonish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun “Yangi Oʻzbekiston” va “Uchinchi Renessans” soʻzlari hayotimizda oʻzaro uygʻun va hamohang boʻlib yangramoqda, xalqimizni ulugʻ maqsadlar sari ruhlantirmoqda”³, deya xulosa qildi Shavkat Mirziyoyev.

Ilk Renessans davrida buyuk ajdodlarimizning yaratgan ilmiy- falsafiy asarlari va olamshumul kashfiyotlari islom sivilizatsiyasiga tamal toshi boʻldi.

Ikkinchi Renessans Amir Temur va Temuriylar davriga toʻgʻri kelib, butun Markaziy Osiyo xalqlari oʻz ilmiy rivojining yangi bosqichiga oʻtdi. Shuningdek, davlatchilik asoslari takomillashib, shaharsozlik va meʼmorchilik avj oldi, xalqaro savdo va diplomatik aloqalar jadallashdi.

Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga qaratilgan keng qamrovli islohotlarni amalga oshirish uchun turli soha va tarmoqlar boʻyicha zamonaviy bilim va koʻnikmalarga ega boʻlgan, salohiyatli fidoyi va izlanuvchan mutaxassis kadrlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Shunga koʻra, davlatimiz rahbari tomonidan jamiyatimizning bilimli va isteʼdodli kadrlarga boʻlgan ehtiyojini uzoq muddatga qondirish, iqtisodiyotni raqobatbardosh mutaxassislar bilan taʼminlash maqsadida taʼsirchan va izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentining tashabbusi bilan 2021-yilda Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markaz huzurida tashkil etilgan Ijtimoiy-maʼnaviy tadqiqotlar instituti muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur institut “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” degan gʻoya asosida mamlakatimizda maʼnaviy-maʼrifiy ishlarni yangi bosqichga koʻtarish, aholi, ayniqsa, yoshlarni Vatanga muhabbat, maʼnaviy merosimiz, milliy adabiyotimizga hurmat ruhida tarbiyalash gʻoyasini hayotga tatbiq etish ishlarini ilmiy-metodik va axborot-tahliliy jihatdan taʼminlash kabi vazifalarni amalga oshirishni

³ <https://yuz.uz/uz/news/davlatimiz-rahbari-bilan-tarixiy-suhbat>

maqsad qilgan. Shu bilan birga, dunyoning mafkuraviy manzarasini o'rganish, tahlil qilish, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga mos xorijiy tajribani amaliyotga joriy etish ishlarini tizimli yo'lga qo'yish nazarda tutilmoqda.

Mafkuraviy targ'ibot-tashviqot ishlarini islohotlarning mazmun-mohiyatini qiyosiy ko'rsatgan holda amalga oshirish lozim. Jahon tajribasidan ma'lumki, har bir mamlakat o'z taraqqiyotini yuksaltirish hamda rivojlanish omillarini kengaytirish uchun inson kapitalini, xususan, yosh avlodning ilmiy, ijodiy va ma'naviy salohiyatini takomillashtirish orqali amalga oshirib kelgan.

Bugungi kunda davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan yoshlar tarbiyasi, ularning ma'naviyatini yuksaltirish sohasidagi islohotlar hayotimizning boshqa sohalari bilan o'zaro chambarchas bog'langan hamda tizimli ravishda amalga oshirilmoqda⁴.

Yangi O'zbekiston yoxud Uchunchi Renessans davrini O'zbekistonda hokimiyat tepasiga Sh.M.Mirziyoyevning kelishi bilan bog'lash maqsadga qisman to'g'ri keladi. Sababi, hukumatda, iqtisodda, siyosatda va boshqa jabhalarda bir qator ijobiy islohatlar amalga oshirildi. Xususan, bosh qomusimiz bo'lmish Konstitutsiyaga referendum natijasida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Ta'lim sohasida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Mamlakatni rivojlantirishning istiqbolli rejalari ishlab chiqildi hamda hayotga ta'dbiq etildi. Mintaqada yuz berayotgan ekologik, iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy o'zgarishlarda peshqadamlardan biri bo'lmoqda. Mintaqada yuz berishi mumkin bo'lgan tahdidlarga qo'shni davlatlar va dunyo davlatlari bilan birgalikda qarshi kurashmoqda.

O'zbekistonimiz mustaqil bo'lganiga 33 yil bo'ldi, ushbu jarayon har bir vatandoshimiz, xalqimizga ulkan imkoniyatlar, dunyo hamjamiyatidagi tenglik kabi baholab bo'lmaydigan huquqimizni qaytarib berdi. Pirovardida milliy o'zligimizni angladik, milliy g'oyamizni ishlab chiqdik, milliy va ma'naviy qadriyatlarimiz

⁴ <https://cyberleninka.ru/article/n/uchinchi-renessans-poydevorini-yaratishda-mafkuraviy-islohotlarning-ahamiyati>

tiklandi, milliy tiklanishdan - milliy yuksalish tomon odimlamodamiz. Demak, vatandoshlarimizda “tinchlik”, “mustaqillik”, “farovonlik”, “rivojlanish”, “taraqqiyot”, “yuksalish”, “ma’rifat” kabi g‘oyalarga daxldorlik hissi oshmoqda, xalqimiz milliy birlikni his qilsagina, ilm-ma’rifatga e’tiborni kuchaytirsa, yuksalishga intilsa, islohotlar tashabbuskori bo’lsa – mustaqilligi umrboqiy bo’ladi, davlatimiz rivojlanish va taraqqiyot sari yuz tutadi.

Jahon miqyosida yurtimiz haqida so‘z ketganda “Yangi O‘zbekiston”, “Yangi O‘zbekiston tajribasi” degan iboralar tilga olinmoqda. Bu mamlakatimizda keyingi yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo‘yganimiz, erishayotgan zalvorli yutuqlarimizning e’tirofi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bugungi kunda ilm-fan arboblari, tadqiqotchilar, olimlar diyorimizdagi yangi uyg‘onish davrining o‘ziga xos bo‘lgan jihatlarini sohalar kesimida tadqiq qilishga kirishdi. Jumladan, pedagogika fanlari doktori, professor M.Quronov va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori X.Jabborov tomonidan uchinchi renessans davrining g‘oyaviy, mafkuraviy, pedagogik, psixologik jihatlarini tadqiq qilindi va unda quyidagicha tahlillarni keltirish mumkin.

“Uchinchi Renessans – ma’no + fikr + g‘oya + harakat = Milliy g‘oya!” formulasi keltiriladi. Bunda asosan, mustaqillikni mustahkam himoyalash, mazkur holat bo‘yicha o‘tmishdan saboq chiqarish kerakligi, masalan mustaqillikni harbiy, shuningdek, ma’naviy himoyalash mumkinligi, tarixdan bizga ma’lumki, biz qachon mustamlakaga tushgan bo‘lsak, bunga xalqning birlashmaganligi sabab bo‘lgan. Xalq birirlashmaganligining sababi esa, hammani birlashtiradigan g‘oya bo‘lmaganligi va bu g‘oya odamlarning qalbiga singdirilmaganligi bo‘lib chiqadi”⁵, ya’ni Uchunchi Renessansda avvalambor har-bir qilinayotgan harakatning ma’nosi, fikri, g‘oyasi hamda unga qaratilgan harakat bo‘lmog‘i lozim, degan xulosa kelib chiqadi.

Xulosa, O‘zbekistonda bugungi kunda mafkuraviy islohatlarni amalga oshirishga qaratilgan ko‘plab siyosiy va huquqiy mexanizmlar faoliyat yuritmoqda, xususan 2017-2021, hamda 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning

⁵ <http://uza.uz/uz/>

Taraqqiyot Strategiyalarini keltirishimiz mumkin. Shuningdek, aholini ijtimoiy himoya qilish, yoshlarni, xotin-qizlarni ish bilan taminlash, qashshoqlik darajasidan aholini olib chiqishga qaratilgan tizimli, uzoqni o‘ylab tuzilgan chora tadbirlarning huquqiy negizining mustahkamligini alohida ta’kidlash joiz. Ayollar, yoshlar hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning reestrlari tuzilib, ularni har tomonlama qo‘llab quvvatlashga qaratilgan Ijtimoiy himoya yagona reestrining joriy etilishi, har-bir mahallalar kesimida Inson ijtimoiy xizmatning tashkil etilganli, ulardan mahallalar kesimida xodimlar bilan ta’minlanganligi, aholining muammolarini joyida o‘rganish hamda unga yechim topish imkonini yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. <https://xabar.uz/uz/post/yangi-ozbekiston-va-uchinchi-renessans>
2. <https://yuz.uz/uz/news/davlatimiz-rahbari-bilan-tarixiy-suhbat>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/uchinchi-renessans-poydevorini-yaratishda-mafkuraviy-islohotlarning-ahamiyati>
4. <http://uza.uz/uz/>
5. Sharafutdinovich, K. S. (2024). Implementation Of Modern Technologies In The Development Of The Sector Of Ecotourism. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 28, 7-10.
6. Xamrayev, S. (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNI ASOSIY JIHATLARI. Solution of social problems in management and economy, 3(3), 23-27.
7. Sharafutdinovich, K. S. (2024). THE CONCEPT OF ECOLOGICAL TOURISM AND ITS SOCIO-PHILOSOPHICAL SIGNIFICANCE IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 4(2), 7-12.
8. Khamrayev, S. (2023). HISTORICAL PERIODS OF THE FORMATION OF ECOTOURISM IN THE WORLD. Инновационные исследования в науке, 2(10), 15-17.

9. Хамраев, С. С. (2022). О 'ЗБЕКИСТОНДА ЕКОТУРИЗМ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТА'МИНЛАШДА ЕКОЛОГИК ТА'ЛИМ ВА ТАРБИЯ ЖАРAYONLARINI INTEGRATSIYALASH ZARURATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(12), 524-528.